



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025  
1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Наргиза Музафаровна Бабаева</b> Жаҳон лизинг хизматлари бозорининг ҳолати таҳлили ва ўзбекистонда унинг ривожланиш тенденциялари.	70
<b>Рамз Зоиржон ўғли Мухаммадиев</b> Тиббий хизмат сифатини яхшилашда юқори технологиялар ўрни.	77
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Гульнара Мардиевна Шадиева, Бону Бахтиёрвна Давронова</b> Туризм в Узбекистане: драйвер экономического роста и социальной стабильности	80
<b>Maksuda Valeriyevna Israilova</b> Sog'lomlashtirish turizmning mohiyati va rivojlanish tarixi.	84
<b>Dilshod Usmanovich Ruzmanov</b> Turizmда madaniy-tarixiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish	90
<b>Nargiza Akbardjonovna Abduvaxidova</b> Barqaror turizm rivojlanishida muammo va imkoniyatlar	94
<b>Фарход Абдихидович Бекназаров, Азиза Пирмаматовна Махмудова</b> Мамлакатимиз экотизими ва маданий меросини комплекс сақлаш ҳамда минтақада экотуризмни ривожлантиришда геопапркларнинг ўрни	99
<b>Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova</b> Iqtisodiyotni raqamlashtirishda turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	103
<b>Камилла Бахромовна Суюнова, Олтинбек Бобирович Умаров</b> Роль маркетинговых стратегий в развитии цифровизации сферы туризма в Узбекистане	108
<b>Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Sitara Otabekovna Xamroyeva</b> Jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlar turizmini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	111
<b>Parvina Asliddin qizi Xolmatova</b> Hududlarda ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	114
<b>Xasan Ibragimovich Turdibekov</b> O'zbekiston sharoitida overturizmni baholash uslubiyatini takomillashtirish	118
<b>Aziza Yusufbekovna Talibova</b> O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari	122
<b>Нодир Нозимович Негматов</b> Роль визуальных и культурных стимулов Узбекистана в формировании лояльности туристов: нейромаркетинговый подход.	127
<b>Nodirjon Abduxalil o'g'li Xoliqov, Ibragim Xudayarovich Nimatov</b> O'zbekiston Respublikasi turistik salohiyati: tahlillar va istiqbollar	132
<b>Азиза Пирмаматовна Махмудова, Ситора Отабековна Ҳамраева</b> Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда Big Data технологияларидан фойдаланиш йўллари	138
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Nigina Marupovna Usmanova, Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova</b> Qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish va korxonada boshqaruvni takomillashtirish yo'llari	140
<b>Gulshan Akmalovna Abduvohidova</b> Tashkilot intellektual resurslarini boshqarish tamoyillari	145

<p style="text-align: center;"><b>K.Suyunova, O.Umarov</b> <b>O‘zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirishni rivojlantirishda marketing strategiyalarining o‘rni</b></p> <p><b>Annotatsiya.</b> Maqolada onlayn-platformalarning o‘sishi, imtiyozlarning o‘zgarishi, raqobatning kuchayishi va Big Data rivojlanishini qamrab oluvchi sayohat industriyasini raqamlashtirish kontekstida marketing strategiyalari zarurligi asoslanadi. Unda shaxsiylashtirish, kontent marketingi, obro‘ni boshqarish va tahliliy vositalar integratsiyasi, shuningdek marketing faoliyatini optimallashtirish muhimligi ta’kidlanadi. Shuningdek, turizmni raqamlashtirish sharoitida marketing strategiyalari o‘rni asosiy jihatlari ham aniqlandi, reklama samaradorligini oshiradigan vositalar va yondashuvlar belgilandi, olingan natijalarni amaliyotda qo‘llash uchun har tomonlama bozor tadqiqoti metodologiyasi taklif etildi.</p> <p><b>Kalit so‘zlar:</b> marketing strategiyalari, turizm, marketing vositalari, dasturiy marketing, ijtimoiy media marketingi, elektron tijorat, Internet kommunikatsiyalari.</p>	<p style="text-align: center;"><b>K.Suyunova, O.Umarov</b> <b>The role of marketing strategies in the development of digitalization of the tourism sector in Uzbekistan</b></p> <p><b>Abstract.</b> The article substantiates the need for marketing strategies in the context of digitalization of the travel industry, covering the growth of online platforms, changing preferences, increased competition and the development of Big Data. It emphasizes the importance of personalization, content marketing, reputation management and integration of analytical tools, as well as optimization of marketing activities. Key aspects of the role of marketing strategies in the context of digitalization of tourism have also been identified, tools and approaches that increase the efficiency of promotion have been identified, and a methodology for comprehensive market research has been proposed for the practical application of the findings.</p> <p><b>Keywords:</b> marketing strategies, tourism, marketing tools, programmatic marketing, social media marketing, e-commerce, Internet communications.</p>
--	--

**Rayhona Sadriddinova Amriddinova** – SamISI, Turizm kafedrasida dotsenti, i.f.n.,  
**Sitora Otabekovna Xamroyeva** – SamISI, MTM-124 guruh magistranti

### **JISMONIY IMKONIYATLARI MA'LUM DARAJADA CHEKLANGAN INSONLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI**

<p><b>Annotatsiya.</b> Mazkur maqolada ma'lum darajada nogironligi bo'lgan shaxslarning sayohat qilishida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etishda yo'lga qo'yilayotgan zamonaviy innovatsion texnologiyalar haqida yozilgan.</p> <p><b>Kalit so‘zlar:</b> innovatsion texnologiyalar, raqamli turizm, transport vositalari, ijtimoiy nogironlik, Yaponiya innovatsion texnologiyalari.</p>
--

**Kirish.** Turizm tushunchasi barcha insonlarda maroqli hordiq va vaqtini zavqli, mazmunli o‘tkazish tushunchasi sifatida qaraladi. Shu jumladan jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar ham ushbu ajoyib imkoniyatlardan bahramand bo‘lishga haqlidirlar. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko‘ra, dunyoda 1 milliard nogiron kishi bor, bu butun dunyo aholisining 15 foizini tashkil qiladi. Ularning 2 - 4 foizigacha kundalik faoliyat bilan bog‘liq jiddiy muammolar mavjud. Bundan tashqari, shuni yodda tutish kerakki, nogironlar soni doimiy ravishda o‘sib bormoqda va JSST ta’kidlaganidek, bu tendensiya, aholining qarishi hamda surunkali kasalliklar tarqalishining tez o‘sishi va boshqa jarayonlar bilan bog‘liq [ 1 ]

Ijtimoiy nogironlik (hayot faoliyatining turli jarayonlarida ishtirok etmaslik) infratuzilma va innovatsion texnologiyalar nuqtayi nazaridan yashash muhitini ma'lum bir shaxsning ehtiyojlariga moslashtirmaslik bilan chambarchas bog‘liq. Ma'lumki, ijtimoiy guruh vakillarining harakatlanish muammolarining sabablari hali ham noto‘g‘ri ishlab chiqilgan yoki foydalanilgan individual texnik jihozlar bilan bog‘liq. Nogironlar uchun maxsus ishlab chiqilgan asbob-uskunalarga qo‘yiladigan talablarni shakllantirishda ularning o‘ziga xos ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirish, ushbu sohadagi mutaxassislarning yetarli bilimga ega emasligi bilan birgalikda, odatda, nogironlarning mustaqil yashash konsepsiyasiga muvofiq normal faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarini cheklaydi.[ 2 ]

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasiga ko‘ra, odamlar shaxsiy cheklovlar emas, balki tashqi to‘siqlar tufayli nogiron bo‘lib qolgan. [ 3 ] Shunday qilib, ushbu tashqi to‘siqlarni bartaraf etish nogironlikni kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi.

Turizm sohani jadal rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda PQ-4095-sonli “Turizm tarmog‘ini rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorda 2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida mehmonxonalar qurishning maqsadli parametrlari, istiqbolli investitsiya loyihalari, zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etiladigan madaniyat obyektlari va muassasalari belgilab berildi.[ 4] Prezidentimizning turizmni innavatsion jihatdan rivojlantirishga qaratilgan ushbu qarorlari yurtimizda ushbu sohani xususan sotsial turizmni ham jadal rivojlantirishga asos bo‘lishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** O‘zbekistonda turizm va uning ijtimoiy xususiyatlari respublikamiz olimlaridan K.X.Abduraxmonov, M.R.Boltaboyev, Ye.V.Golisheva, I.S.Tuxliyev, M.Q.Pardayev, D.X.Aslanova, M.T.Alimova, M.T.Aliyeva, B.Sh.Safarov asarlarida o‘rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot mavzusini yoritishda quyidagi usullardan foydalanildi: adabiy manbalar tahlili, kontent tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv.

**Tahlil va natijalar.** Ma‘lumotlarga ko‘ra, Yevropa Ittifoqida 80 million nogironning 70% dan ortig‘i sayohat qilish va turizmdan zavqlanish imkoniyatiga ega. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida potentsial bozor hajmi 690 million kishini tashkil etadi, Lotin Amerikasi va Karib havzasida bu ko‘rsatkich 85 million kishiga yetadi. [ 7 ] Mehnatga layoqatli sayyohlar bilan solishtirganda bu raqam kam. Nogironlar faol turizmining turli shakllari orasida tog‘ va pasttekisliklarda piyoda sayohatlar (nogironlarning butun faoliyatidagi ulushi 64%), velosport va baydarka (taxminan 14%) ustunlik qiladi. Ot minish (4%), suzib yurish (1,7%), avtosport (1,6%), chang‘i (0,3%) va suvga sho‘ng‘ish (0,02%) kamdan-kam uchraydi. [ 8 ]

Nogironligi mavjud shaxslarning sayohat qilishida yuzaga keladigan asosiy kamchiliklardan biri bu transport vositalaridagi noqulay sharoitlardir. Nogironligi bor shaxslar uchun turli individual avtomobillarda harakatlanish ular uchun moliyaviy jihatdan noqulayliklar tug‘diradi va shu sababli ular ko‘pincha jamoat transportidan foydalanishni ma‘qul ko‘radilar. Jamoat transportlari esa jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun xizmat qilishga to‘laqonli tayyor emasligi achinarli holat.

Transport har bir turistik korxonaning ajralmas elementidir. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar jamoat transportidan foydalanish imkoniyati nuqtayi nazaridan o‘zlarini noqulay sezishlari mumkin, ayniqsa sayohat yangi, notanish hududda amalga oshirilganda va masalan, boshqa transport vositasiga o‘tishni talab qilganda, logistik jihatdan vaziyat murakkablashishi mumkin (masalan, temir yo‘ldan avtomobil yoki havo transportiga o‘tish). Nafaqat muayyan transport vositalarining maxsus ehtiyojlarga moslashtirilmaganli, balki transportdan foydalanishning batafsil qoidalarining murakkabligi diskriminatsiya yuzaga kelayotganini anglatadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning jamoat transporti tizimida harakatlanishiga moslashtirilgan transport vositalarining mavjud emasligi va nogironlar aravachalarida harakatlanadigan shaxslarni tashish qoidalari to‘g‘risida aniq va qat‘iy chora tadbirlar qo‘llanilmayotganligi ijtimoiy guruh vakillarining sayohat qilishida sezilarli darajada to‘sqinlik qilmoqda. Ko‘pincha poyezd va samalyotda sayohat qilishni niyat qilgan nogironligi bo‘lgan shaxslar aeroport va vokzallarga bu haqida ancha oldinroq xabar berishlari talab qilinadi va buning natijasida ushbu yo‘lovchilar sayohat rejalarini tuzish yoki marshrutga kutilmagan o‘zgartirishlar kiritishning iloji bo‘lmaydi. Bu umuman jamoat transporti tizimiga kirishga to‘sqinlik qiladi.

Hozirda dunyo bo‘ylab nogironligi mavjud bo‘lgan shaxslar uchun yangi innovatsion texnologiyalar orqali bir necha qulayliklar ham yaratilmoqda va bu orqali ularning kelajakdagi sayohat qilish ehtimoli oshib borishi mumkin. Barchamizga ma‘lumki, Yaponiya innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va ularni turli sohalarga tatbiq etish borasida dunyo bo‘yicha

yetakchi o‘rinda turadi. Quyida ushbu davlatning aynan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulayliklar yaratish maqsadida ishlab chiqarilgan texnologik vositalari bilan tanishamiz.

Jismoniy nogironligi mavjud bo‘lgan shaxslarni jamiyatlashtirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Ushbu masala yuzasidan to‘xtovsiz harakatlar olib borayotgan Yaponiyada nogironlarning shahar bo‘ylab erkin harakatlanishiga yordam beradigan ko‘plab texnologik jihozlar va xizmatlar ishlab chiqilmoqda. Ulardan biri ko‘zi ojizlar uchun yaratilgan “Ashirase” navigatsiya tizimidir. Foydalanuvchilarning poyabzaliga birlashtirilgan va smartfon ilovasiga ulangan kichik qurilma tebranishlar orqali foydalanuvchiga qayerga borishini ko‘rsatib beradi. [9]

Ashirase – bu smartfon ilovasi va poyabzal ichiga o‘rnatilgan harakat sensori, shu jumladan uch o‘lchovli tebranish moslamasidan iborat navigatsiya tizimi. Ilova bilan o‘rnatilgan mashrutga asoslanib, qurilma navigatsiyani ta‘minlash uchun tebranadi. Foydalanuvchi to‘g‘ri yo‘nalish bo‘ylab yurishi kerak bo‘lganda, oyoqning old qismida joylashgan vibrator tebranadi va foydalanuvchi o‘ngga yoki chapga burilishga yaqinlashganda, o‘ng yoki chap tomondagi vibrator foydalanuvchini xabardor qilish uchun tebranadi. Ashirase tomonidan taqdim etilgan navigatsiya mashrutni intuitiv tushunish imkonini beradi va shuning uchun foydalanuvchi yo‘nalishni doimo yodda tutishi shart emas, bu esa foydalanuvchiga xavfsizroq va xotirjamroq ruhiy holat bilan yurish imkonini beradi.[10]

**Xulosa va takliflar.** Bugungi globalashuv davrida deyarli barcha sohalarda innovatsion texnologiyalar orqali bir necha yutuqlarga erishilmoqda. Xususan turizm sohasida ham ko‘plab innovatsion yangiliklar sohaga kundan kun yangilik va o‘zgartirishlar olib kirmoqda. Yurtimizda ham turizmni rivojlantirishda innovatsion jarayonlardan samarali foydalanish bo‘yicha yangi chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu esa, albatta, turizm sohasini ayniqsa, sotsial turizmni rivojlantirishda katta rivojlanishlarga olib keladi.

Prizidentimiz tomonidan 2023-yil 29-mart kuni mamlakatimiz turizm sohasini rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan yig‘ilishida yurtimizni turizm sohasini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish zarurligi aytib o‘tildi va ma‘ruza davomida turizm sohasini rivojlantirishda yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish to‘g‘risidagi fikr mulohazalarga alohida to‘xtalib o‘tilib bu boradagi barcha vazifalar soha vakillariga belgilab berildi. Bu esa, albatta, turizm sohasini ayniqsa, sotsial turizmni rivojlantirishda katta rivojlanishlarga olib keladi.

Yordamchi zamonaviy texnologiyalar loyihalarini ishlab chiqish keksa fuqarolar va nogironlar o‘rtasida turli tadbirlarda, xususan turizm va sportda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga olib keladi. Hozirgi vaqtda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi turli xil dam olish tadbirlarida, shu jumladan faol turizmda ishtirok etishni osonlashtiradigan maxsus jihozlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib yurtimizdagi sotsial turizm holatini o‘rgangan holda ushbu turizm turini rivojlantirishda quyidagi takliflarni aytib o‘tish mumkin:

- Bir necha rivojlangan davlatlar turizmi ayniqsa, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning sayohatini tashkil qilishda erishilayotgan yutuqlar negizida asosan innovatsion texnologiyalar muhim rol o‘ynayotganini hisobga olsak, yurtimizda ham sotsial turizmni rivojlantirishda texnologik jarayonlardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish ustuvor maqsadlarimizdan biri bo‘lmog‘i lozim. Bu yo‘lda turizm sohasi bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribalarini o‘rganish, chet davlatlardan investorlarni jalb qilish kerakli innovatsion robota-texnikalarni ishlab chiqarish bo‘yicha yutuqlarga erishayotgan davlatlardan import qilish lozim.
- Ijtimoiy guruh vakillari turizmni rivojlantirishda ularga sayohat uchun arzon tur paketlar ishlab chiqish, turizm mahsulotlari, transport vositalarini ular uchun arzonlashtirish choralari ko‘rish kerak.
- Sotsial turizm va uning imkoniyatlari haqida aholida yetarli tushunchalar uyg‘otish, turizm sohasi vakillari uchun maxsus kurslar tashkil qilish orqali ularda bu boradagi bilim ko‘nikmalarni oshirish ushbu sohani yanada rivojlanishga olib kelishi mumkin.
- Jismoniy nogironligi mavjud shaxslar turistik obyektlarda erkin harakatlanishi uchun ularga yetarli shart sharoitlar yaratish, ommaviy binolarda nogironlar aravasi bemalol harakatlanishi uchun qo‘shimcha yo‘laklar, ko‘zi ojiz sayyohlar uchun maxsus quloqchinlar va aksincha

eshitish qobilyatida nuqsoni bor turistlar uchun esa maxsus texnologiyalar orqali panorama ko'rgazmali shoular orqali ularga turistik obyektlar haqida ma'lumotlar berib borish ayni muddaodir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti. Jahon banki. Nogironlik bo'yicha jahon hisoboti 2011. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti; Valletta, Malta: 2011. [ [Google Scholar](#) ]
2. Pyaneandee C. International Disability Law: A Practical Approach to the United Nations Convention on the Rights of Persons with Disabilities. Routledge; New York, NY, USA: 2018.
3. Rasmussen M., Lewis O. United Nations Convention on the Rights of Persons With Disabilities. Int. Leg. Mater. 2007;46:441–466. doi: 10.1017/S0020782900005039.
4. Xurramov Ortiqjon Qayumovich Buxoro davlat universiteti “Raqamli turizm” oliy talim muassasalari uchun darslik Buxoro 2021 “Durdona” nashriyoti.
5. Sayfutdinov Sh.S., Baxromov A.A Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Turizmدا innovatsiya” kitobi Toshkent 2023
6. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti N.R.Zaynalov “Turizmدا axborot texnologiyalari” o'quv qo'llanma “Voris nashriyoti” Toshkent 2017
8. Analiza Rozwoju Turystyki Społecznej w Polsce. Stan, Szanse i Zagrozenia / Polshada ijtimoiy turizmni rivojlantirish tahlili. Holat, imkoniyatlar va tahdidlar. Instytut Turystyki; Varshava, Polsha: 2007.

**Elektron havolalar.**

7. <https://www.unwto.org/accessibility>
9. <https://global.honda/en/japan-mobility-show/2023/info/Ashirase/>
10. <https://global.honda/en/newsroom/news/2021/c210611beng.html>

<p><b>Р.Амриддинова, С.Хамроева</b></p> <p><b>Значение инновационных технологий в развитии туризма для людей с ограниченными физическими возможностями</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье рассмотрены некоторые проблемы, возникающие при путешествии лиц с определенным уровнем инвалидности, и возможности ряда современных инновационных технологий, направленных на их устранение.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> инновационные технологии, цифровой туризм, транспортные средства, социальная инвалидность, японские инновационные технологии.</p>	<p><b>R.Amriddinova, S.Khamroeva</b></p> <p><b>The importance of innovative technologies in the development of tourism of people with limited physical capabilities</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article looks at some of the challenges that arise when travelling for people with certain levels of disabilities and the possibilities of a number of modern innovative technologies aimed at eliminating them.</p> <p><b>Keywords:</b> innovative technologies, digital tourism, vehicles, social disability, Japan innovative technologies.</p>
--	---

**Parvina Asliddin qizi Xolmatova** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

**HUDUDLARDA EKOTURIZMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hududlarda ekoturizmni rivojlantirish va tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari o'rganilgan. Dunyo tajribasi asosida O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan. Maqolada ekoturizmni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari, moliyaviy instrumentlari va huquqiy asoslari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ekoturizm, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, turistik resurslar, atrof-muhit muhofazasi, bandlik darajasi.

**Kirish.** Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.